



UDK: 94(575.1):338

Xayriya BURIYEVA,

O'zR FA O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz ilmiy xodimi, t.f.d

E-mail: birieva73@mail.ru

O'zMU professori, t.f.n.Z.Rahmonqulova taqrizi asosida

### ON THE FEATURES OF THE REBUILD PERIOD IN UZBEKISTAN

Annotation

The article is devoted to the problems of the rebuild period and its stages in the history of Uzbekistan, which took place against the backdrop of political and socio-economic crises. The issues of presentation of the features of this period in the works of the first President of the Republic of Uzbekistan I.A. Karimov are revealed.

**Key words:** Rebuild, transition period, Uzbekistan, first President I.A. Karimov, works, crisis, politics.

### ОБ ОСОБЕННОСТЯХ ПЕРИОДА ПЕРЕСТРОЙКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Статья посвящена проблемам периода «перестройки» и его этапов в истории Узбекистана, который происходил на фоне политических и социально-экономических кризисов. Раскрыты вопросы изложения особенностей данного периода в произведениях первого Президента Республики Узбекистан И.А. Каримова.

**Ключевые слова:** Перестройка, переходный период, Узбекистан, первый Президент И.А. Каримов, произведения, кризис, политика.

### ЎЗБЕКISTONDA QAYTA QURISH DAVRI JIHATLARI XUSUSIDA

Аннотация

Maqolada O'zbekiston tarixidagi siyosiy va iqtisodiy-ijtimoiy inqirozlar bilan kechgan davr – sovet tizimi yillaridagi “qayta qurish” hamda uning bosqichlari haqida so'z yuritiladi. Ushbu davr O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida talqin qilinganligi masalasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Qayta qurish, o'tish davri, O'zbekiston, birinchi Prezident I.A.Karimov, asarlar, inqiroz, siyosat.

**Kirish.** Mamlakatimiz tarixida bo'lib o'tgan va hozirgi zamonda kechayotgan jarayonlarni izohlab, ilmiy va amaliy jihatdan asoslab, keng ommaga tushunarli tarzda yoritib beruvchi rahbariy adabiyotlarni o'rganish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatida e'tirof etilishi, bunga erishishdagi mashshaqatli yo'lni bosib o'tishi, suveren davlat sifatida jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lishi, o'zining davlatchilik tarixida mutlaqo yangi bo'lgan tizim, boshqaruv shakli va iqtisodiyotga o'tishi va qisqa davr mobaynida ijobiy natijalarga erishishi to'g'risidagi ma'lumotlar mamlakatimiz Prezidentlari asarlaridan o'rin olgan. Shuningdek, o'lkamizda kechgan tarixiy voqealar mamlakatning xalqaro munosabatlari sohasida hamda muayyan davrlarda chet ellarda, qo'shni hududlarda ro'y bergan tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda talqin qilingan [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston davlati tarixida murakkab davrlardan hisoblangan “qayta qurish”, “oshkoralik”, hamda “o'tish” davrlari O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida o'z aksini topgan [2]. Respublikaning rahbari sifatida uning zimmasiga yuklangan mas'uliyat puxta o'ylangan taraqqiyot dasturini ishlab chiqishni taqozo etardi.

Mazkur davrlar tarixini yorituvchi tadqiqotlar bir qator olimlar tomonidan mustaqillik yillarida amalga oshirilgan bo'lib, natijalar ilmiy to'plamlardan o'rin olgan. Ularda “qayta qurish” siyosatining davrlari, xususiyatlari, ziddiyatlari, mag'lubiyati sabablari, “oshkoralik” tadbirlarining mohiyati, kechishi va oqibatlari, “o'tish” davrining murakkabligi, muammolari va ularning yechimini izlash bo'yicha olib borilgan chora-tadbirlar xususida ma'lumotlar keltirilgan. Mavzuga oid faktik materiallar, tarixiy voqealar haqidagi fikr-

mulohazalar, hodisalarning talqinlari obyektiv tarzda berilgan [4;5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Qayta qurish davrining mohiyatini yoritishda rahbariy adabiyotlar, nazariy-metodologik asarlardan foydalanish, tarixiy taqqoslash, faktik materiallarni jalb qilish, statistik, davriy manbalarga tayanish, retrospektiv usul, tahlil uslublarini qo'llash alohida ahamiyat kasb etadi.

**Tahlil va natijalar.** Sovet davrida butun Ittifoq respublikalarida, va shu jumladan, O'zbekistonda ham siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy hayotda mavjud kamchiliklar, xatoliklar, muammolarni “qayta qurish va oshkoralik davri” deb atalmish qisqa tarixiy davr (1985–1989-yillar) mobaynida, ayniqsa davlat boshqaruv mexanizmi va iqtisodiyotni eskicha uslubda yuritib, shunchaki ishlab chiqarish tartibiga bir qancha o'zgartirishlar kiritibgina bartaraf qilib bo'lmasligi aniq namoyon bo'lgan.

Qayta qurish siyosatining maqsadi va vazifasi SSSRda totalitar tizimni isloh qilish yo'li bilan mamlakatda tuplanib qolgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va mafkuraviy sohalardagi muammolarni “qayta qurish” va “jadallashtirish” yo'li bilan hal etishdan iborat edi.

1985-yil 23-aprelda bo'lib o'tgan plenumda Sovet hukumati (KPSS MQ Bosh kotibi M.S.Gorbachev boshchiligidagi) tomonidan belgilangan dasturda mamlakatni inqirozdan olib chiqish uchun o'ziga xos yo'l-yo'riqlar ko'rsatilgan va asosan iqtisodiy sohada yangicha jarayonlarga o'tish belgilab berilgan [6]. Jumladan, birinchi bosqichda (1985–1987-yillar) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni “jadallashtirish” maqsad qilib belgilanib, ishlab chiqarish korxonalariga ilmiy-texnikaviy yutuqlarni joriy qilish, korxonalar faoliyati samaradorligini ularning texnika ta'minotini yangilash, ulardagi ilm-fan va texnika bilan o'zaro

aloqani kuchaytirib ishlarni tashkil etish vazifalari belgilangan.

Mazkur bosqich o'zini oqlamagan va kutilgan natijaga olib kelmagan. Navbatdagi – ikkinchi bosqichga o'tilgan (1987–1988 yillar) va bunda ishlab chiqarish mahsulotlarining soni emas, balki sifatini oshirish kabi uslublardan keng foydalanish rahbariyat tomonidan qat'iy belgilab berilgan. Ushbu talablar ijobiy samaraga olib kelishi mumkin edi, albatta, biroq bir necha o'n yilliklar davomida yaratilgan ishlab chiqarish munosabatlari mexanizmining iqtisodiyotga ancha chuqur o'rnashgani bunday yangicha usullarni tadbiq etishga to'sqinlik qilardi. Shu bois, belgilangan masalalar bajarilmagan va davlat, jamiyat inqirozga yuz tutishi jarayonlari toboro kuchayib borgan.

Uchinchi bosqichda (1988–1989-yillar), nihoyat, siyosiy tizimni o'zgartirish kerakligi masalasiga e'tibor qaratilgan. Bunda ham to'g'ri yo'l tutilmaganligini davlatda inqiroziy holat kuchayganligida kuzatish mumkin. Olib borilgan islohotlarning samarasiz ekanligi sabablaridan biri, bu "to'xtatib qo'yish" mexanizmining amal qilinishi, aniqrog'i, bir tarafdin, ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruv apparatining mavjud boshqaruv tartiblariga qarshi kurash olib borib, ikkinchi tomondan, ayni vaqtda sotsializm hamda burjuacha demokratiya tartiblarini uyg'unlashtirishga urinishlaridir. Natijada 1989-yilga kelib, sobiq Ittifoq tarkibida respublikalarning mustaqillikka erishish uchun kurashi boshlangan, Markazdan tobelikni barham toptirish dasturlarini amalga oshirishning choralari ishlab chiqilgan. Bunda, albatta, mazkur davrda respublikalarda hukumatni boshqargan va ayni vaqtda eski tuzum, konservativ qarashlarga qarshilik ko'rsatish siyosati yo'lini tanlagan guruhlar va shaxslarning ta'siri hamda xizmatlari katta ahamiyat kasb etgan.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'z nutqlarida "qayta qurish" davriga ta'rif berarkan, uning mojarolari vaziyatlari xususida ma'lumotlarni qayd etgan va bunday holatlar Ittifoqning barcha hududlarida, xususan, O'zbekistonda ham ro'y berayotganiga e'tibor qaratgan [2].

Ayni vaqtda birinchi Prezident O'zbekistondagi ishlarning ahvoli respublikaning o'zigagina xos bo'lgan bir qancha muammolarning namoyon bo'lishi bilan murakkablashganini faktlar asosida namoyon qilgan. Jumladan, prinsipial ahamiyatga bo'lgan ba'zi eng jiddiy muammolardan quyidagilar ko'rsatilgan: 1) Respublikada demografik vaziyatning murakkabligi. 1980-1989-yillarda aholi soni 4,5 mln. kishiga yoki 30 % ko'paydi va 20 mln.ga yetdi; aholining o'sish sur'atlari umumittifoq sur'atlariga qaraganda uch barobardan ziyod yuqori. Aholi jon boshiga hisoblaganda daromadi 75 so'mdan oshmaydigan 8 mln.800 mingga yaqin kishi yashab turibdi, bu esa aholining 45 %ini tashkil etadi (aslida kun kechirish uchun 85 so'm zarur bo'lgan). 2) Respublika xalq xo'jaligi bir yoqlama, haddan tashqari nomaqbul ixtisoslashtirilgan. Natijada shunday ahvol vujudga kelganki, qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda sanoatda ham asosan xomashyoni birlamchi qayta ishlash tarmoqlari ustunlik qilib, tayyor mahsulot, biinchi navbatda xalq iste'moli mollari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar esa arziyas salmoqqa ega bo'lgan. Qishloq xo'jaligi xomashyosining talaygina hajmi respublikadan olib ketilmoqda, ayni vaqtda esa aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun 8-9 mlrd.so'mlik yaqin tayyor mahsulot olib ketilgan (1989-yil). 3) Ishlab chiqaruvchi kuchlar va, avvalo, sanoat obyektlari tartibsiz ravishda joylashtirigani, aniqrog'i, bu masalada har xil o'zboshimchalik, buyruqbozlik qarorlari asosida, ko'pincha ilm-fan vakillari, bilimli va obro'li mutaxassislarining tavsiyalari mutlaqo e'tiborga olinmagan. Respublika sanoat salohiyatining 50 %ga yaqini joylashtirilgan Toshkent va Toshkent viloyati shaharlari,

Farg'ona, Andijon, Qo'qon, Navoiy shaharlari hamda respublikaning boshqa bir qancha mintaqalari misolida ana shunday joylashtirish salbiy ta'sir o'tkazgan. Bunday joylashtirish respublikaning iqtisodiyoti va aholi punktlarining ekologiyasiga katta ziyon yetkazgan. 4) Respublikadagi sotsial ahvoning, odamlarning ijtimoiy ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilishning mutlaqo qoniqsizligi. Qishloq aholisining atigi 5% i kanalizatsiya va vodoprovod bilan, salkam 50% i – ichimlik suv bilan, 17% i tabiiy gaz bilan ta'minlangani, albatta normal holatdan ancha yiroq. (O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy komitetining XVI plenumida so'zlangan nutqdan. 1989-yil 19-avgust) [3].

1980-yillarning o'rtalaridan boshlangan qayta qurish madaniy hayot sohasini ham qamrab olgan, sababi, uzoq yillar davomida sobiq sovet tuzumi milliy respublikalar madaniyatini deyarli inkor etib, mamlakatda yagona "sotsialistik madaniyat"ni shakllantirish borasida olib borgan g'ayriilmiy madaniy siyosati madaniyatda ham ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida bo'lgani kabi tushkunlik, turg'unlik mexanizmini yuzaga keltirdi. Shu bois ham ta'lim, fan, madaniyat va san'at sohalarida "qayta qurish", ya'ni mamlakat rahbariyatining ta'biri bilan aytganda, uning "rivojini jadallashtirish" kerak bo'ldi.

Qayd qilish lozimki, qayta qurish davrida milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni tiklash uchun muayyan sharoit va imkoniyatlar yaratilgan bo'lsa-da, ammo kommunistik mafkuraning tazyiqi pasaymagan. Bu yillarda aholini madaniyat maskanlariga jalb etish, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha olib borilgan ishlar saviyasi ham pasayib ketdi. Madaniy qurilishga nisbatan iqtisodiy yo'nalishga qo'yilgan qandaydir norentabel yuklama, foyda keltirmaydigan soha sifatida munosabat shakllandi. Madaniyatni moddiy jihatdan ta'minlash hajmi kamaydi. 1988 yilga kelib O'zbekistonda 500 ga yaqin yirik qishloqlarda madaniyat uylari, 1 mingdan ortiq aholiga ega bo'lgan aholi punktlarida oddiy madaniyat o'choqlari yo'q edi. Ona tilida kitob nashr qilish bo'yicha O'zbekiston SSSRda eng oxirgi o'rinda turar edi [7].

Umuman olganda, O'zbekistonda, Sovet Ittifoqining boshqa respublikalari singari, qayta qurish davrida iqtisodiy va siyosiy inqiroz juda kuchaygan va davlat, jamiyat taraqqiyoti tang holatga kelib qolgan. Markaziy hokimiyat zaiflashib, mamlakat boshqaruvini nazorat qila olmay qolgan, respublikalarda milliy o'zlikni anglash tendensiyalari toboro faollashib, hatto etnik mojarolar to'qnashuvlarga olib kelgan, respublika hukumat doiralari esa Markazga bo'sunishning barcha shakllariga barham berishga intilib, Ittifoq tarkibidan chiqib ketishni asosiy maqsad qilib qo'ygan va bunga doir jadal harakat boshlagan [3].

Qayta qurish siyosatini Ittifoq tarixida shunchaki samarasiz o'tgan islohotlar, deb ham bo'lmaydi, zero, u ulkan o'zgarishlarning sodir bo'lishiga jiddiy turtki bo'lgan. Qayta qurishni amalga oshirishdagi qarama-qarshilik va noizchiliklar natijasida XX asr 80-yillarining oxiri – 90-yillarning boshidan mamlakat hayotining barcha sohalaridagi bo'hronlar kuchayib ketgan. Bunga shu davrda turli respublikalarda bo'lib o'tgan siyosiy voqealar, milliy nizolarning ayrim joylarda ixtilofli tus olishi misol bo'ladi. Qayta qurish SSSRda to'planib qolgan muammolarni to'la hal etishga xizmat qilmadi. Mustaqillik, demokratiya va erkinlik g'oyalari to'g'ri kelmaganligi tufayli ham amaliy samara bermadi. Oxir oqibatda KPSSning halokati va Sovet Ittifoqning butunlay tugashiga muayyan turtki bo'ldi [8].

Sovet Ittifoqi parchalinishi oqibatida uning tarkibidagi respublikalar suverenitetga erishib, mustaqil taraqqiyot yo'lga o'tganlari ma'lum. Albatta, yangi davlat qurish, yangi tizim barpo qilish hukumat va xalq oldida turgan murakkab vazifa bo'lgan va mazkur tarixiy jarayon har sohada kuzatilgan qiyinchiliklar, mashshaqatlar bilan kechgan.

O'zbekistonning qayta qurish davridan bozor iqtisodiyotiga o'tishi davrida (asosan 1990–1995-yillar qamrab olinadi) samarali iqtisodiyotga o'tish uchun hukumat tomonidan iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi harakatlar dasturini aniqlab olish kerakligi va bunda avvalo O'zbekiston resurlari va imkoniyatlariga yangicha baho berilishi shartligini birinchi Prezident Islom Karimov ta'kidlagan.

“Siyosat – iqtisodiyotning mujassam ifodasi” haqidagi qoida dolzarbligiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu borada Respublika hududi, undagi imkoniyatlar Ittifoq va jahon bozori uchun qanchalik zarurligi masalasini unutmazlik lozim edi. Afsuski, qayta qurish va undan avvalgi davrlarda ham O'zbekistonning tabiiy iqlim sharoitlaridan mutlaqo yetarli foydalanilmayotganligi kuzatilgan.

Mamlakatimizda o'tish davrida Iqtisodiyot samaradorligini oshirish uchun quyidagi omillar respublika birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan belgilangan [2]:

O'zbekistonning boy tabiati, yeri va suvidan oqilona foydalanib, ekin maydonlari va turlarini ko'paytirish, bozor talabini hisobga olib, qanday ekinlar ekishni resublikaning o'zi belgilab olishi, bunda yangi yerlarni o'zlashtirish, yerning meliorativ holatini yaxshilash, bu ishlarga mablag' topish.

Hududimizning yer osti boyliklaridan oqilona va samarali foydalanish yo'llarini qayta ko'rib chiqish va ularni aynan respublika, xalqimiz manfaatlarini yo'lida sarflash, buning takliflarini ishlab chiqish.

Mamlakatimizning eng katta boyligi – bu uning aholisi, mehnat resurslari ekanini doimo nazarda tutib, ishlash uchun sharoit va imkoniyat yaratib berish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning yangi zamonaviy usullarini tadbiq etish. Xalq xo'jaligi strukturasi tubdan o'zgartirish, xom ashyo resurslarini aynan respublikaning o'zida qayta ishlashga erishish.

Kichik korxonalar, filiallar va sexlarni rivojlantirib, ularni ish kuchi ortiqcha rayonlarga joylashtirish; kichik korxonalar va sexlarda tayyorlanadigan mahsulotlar bozorining o'zgaruvchan talablariga tezroq moslashib, ko'payib borayotgan mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash imkonini berishini nazarda tutish.

Rayon markazlarida, kichik shaharlar va posyolkalarda ko'p sohali sanoat kombinatlari qurish istiqbolli ish ekanini hisobga olib, ularda xalq hunarmandchiligi singari unutilgan sohalarini qayta tiklash bilan bir vaqtda aholi uchun zarur mollar, mahalliy binokorlik materiallari ishlab chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratib berish.

Zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini egallash, ishlab chiqarishning fan yutuqlari va mehnat ko'p sarflanadigan tarmoqlarini jadal rivojlantirishga keskin burilish yasash; shu jumladan, mashinasozlik,

radioelektronika, uskunasozi korxonalarini tubdan yangilash va yangilarini qurish hamda chiqarilayotgan mahsulotlarni yangilash vazifasini belgilash.

Respublika agrar sektorini tubdan qayta tashkil qilish, bunda Markaz zo'rvonligidan voz kechib, paxta yakkahokimligiga qarshi izchil kurash olib borishni davom ettirish.

Qayta ishlash sanoati korxonalarini qurilishini jadallashtirish; buing natijasida yangi korxonalar qurilib, oziq-ovqat mollari resurslari ancha ko'paytiriladi hamda aholini bu mollar bilan ta'minlashni yaxshilaydi, ularni Ittifoq ichki bozorida va jahon bozorida foyda bilan sotish imkonini kengaytiriladi.

Qishloqning ijtimoiy hayotini qayta qurish; bu borada qishloqni qashshoqlikdan qutqarish, bunda davlat tomonidan izchil yordam berilishini yo'lga qo'yish: suv ta'minoti, gaz ta'minotini yaxshilash, infrastrukturani rivojlantirish uchun markazlashtirilgan kapital mablag'lar qidirib topish.

Tashqi iqtisodiy imkoniyatlar samaradorligini keskin oshirish.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni muvofiqlashtirish, xalqaro munosabatlar sohasida konstitutsion huquqlarning to'la-to'kis amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratish.

Chet ellarda respublika vakolatxonalarini ochish.

Tarixdan bizga ma'lumki, yuqorida belgilangan vazifalar XX asr 90-yillaridan bosqichma-bosqich amalga oshirila bordi. Suveren davlatda, uning salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, tashqi hamda ichki siyosatda ulkan ishlar amalga oshirilishi o'z natijasini berganini bugungi kunda erishilgan natijalarda kuzatish mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Umuman olganda, O'zbekiston hududida qayta qurish hamda o'tish davrlarida kechgan jarayonlar mohiyati o'sha davr manbalari, shu jumladan, respublika birinchi Prezidenti I.A.Karimov so'zlagan nutqlari, asarlarida o'z aksini topgan. Ushbu ma'lumotlar respublika hayotida kechgan muammolarni hal etishda davlat tomonidan belgilangan dasturlar, ko'rsatilgan yo'l-yo'riqlar, tavsiyalar xususida tushuncha beradi. Shu jumladan, o'lkamizda XX asr oxirlarida kechgan turli tarixiy voqealar mohiyatiga tahlillar, xulosalar taqdim etadi. Qayd etish joizki, mamlakat tarixida kechgan ziddiyatli davrlarni rahbariy adabiyotlar hamda siyosiy yetakchilik qilgan shaxslarning asarlariga tayanib tadqiq qilish maqsadga muvofiq, zero ular kechgan voqealar ishtirokchisi va yo'lbo'shchisi vazifalarini bajaradilar. Qayta qurish davrining bosqichlari va ularda kechgan hodisalarni faktik materiallar, rasmiy, davriy manbalarga asoslanib talqin qilish samarali bo'lib, bunday yondashuv tarixiy jarayonlarga holis baho berishda alohida ahamiyatga ega.

#### ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажигимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 448 б.
2. Каримов И.А. Қайта қуришнинг бориши ва асосий йўналишлари, Ўзбекистон ССРнинг суверенитетини ва иқтисодий мустақиллигини таъминлаш вазибалари. – Тошкент: “O'zbekiston”, 1990. – 52 б.
3. Каримов И.А. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2012. – 440 б.
4. Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида // Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва б. – Тошкент: “Шарқ”, 2000. – 688 б.
5. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). К.2. Ўзбекистон 1939–1991 йилларда / масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2019. – 576 б.
6. История Узбекистана. Учебник для студентов высших учебных заведений. Отв.редакторы: Р.Х.Муртазаева, Т.И.Дорошенко. – Ташкент: “Fan va texnologiya”, 2011. – 320 с.
7. Мамажонов Д.С. Ўзбекистонда қайта қуриш даврида маданий ҳаёт (1985–1991 йиллар). – Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. – 23 б.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Қайта қуриш. – Тошкент, 2005. Т.10. – Б.578–579.